

UDK:619:616.9-022.6:616-084

VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINING TARQALISHI VA MAXSUS PROFILAKTIK TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH.

Shapulatova Z.J.

Ruzikulova U.X.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada virusli diareya kasalligining kechishi, klinik belgilari, maxsus profilaktik tadbirlarni takomillashtirish maqsadida tayyorlangan “Enteroaviglob-1” veterinariya preparati haqida ma’lumotlar keltirigan.

Kalit soʻzlar. Diareya, virus, transovarial, “Enteroaviglob – 1”, antigen, antitelo, “Enterovak-5”, “Tetravir-4”, Escherixia, proteylar.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda qoramollar virusli diareya kasalligi veterinariya fani va amaliyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanib, ushbu kasallik dunyo chorvachilik xoʻjaliklarida global miqiyosida tarqaladigan qoramollar va boshqa kavsh qaytaruvchi hayvonlar populyasiyasiga jiddiy taʼsir qiluvchi infeksiyon kasallikdir. Virusli diareya kasalligi nafas olish oshqozon ichak va reproduktiv aʼzolarini zararlanishi tufayli qoramollarda mahsuldorlikni pasayishi natijasida chorvachilik sanoatiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Tarqalish darajasi kuz, qish va bahor oylarida eng yuqori boʻlib, yozda nisbatan kam kasallanish holatlari kuzatilgan. Kasallikni tarqalish darajasi xoʻjalikdagi qoramollarning 10% dan 100% gacha qoramollarni qamrab oladi. Diagnostik epizootologik ma’lumotlar, klinik belgilar va laboratoriya natijalari asosida amalga oshiriladi. Kasallikdan keladigan iqtisodiy zararining kattaligi sababli ushbu kasallikning tarqalishini oʻrganish va profilaktik tadbirlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqotlar ishlari 2021-2024 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Mikrobiologiya, virusologiya immunologiya kafedrasida, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Hududiy diagnostika laboratoriyasida va Samarqand viloyati Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari havfsizli Samarqand viloyatining 5 ta tumaniga qarashli fermer xoʻjaliklarida olib borildi. Virusli diareya kasalligini oldini olish maqsadida tovuqlarning transovarial immunoglobulinlariga asoslangan “Enteroaviglob – 1” veterinariya preparatini tayyorlash uchun tovuqlarni oʻzimiz tuzgan maxsus sxema boʻyicha buzoqlarning virusli diareya, rota- va koronavirusli infeksiyasi, kolibakterioz va proteoziga qarshi assosirlangan faolsizlantirilgan “Enterovak-5” vaksinasi hamda yirik shoxli hayvonlarning infeksiyon rinotraxeit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsitial infeksiyasiga qarshi assosirlangan tirik “Tetravir-4” vaksinasi bilan 2,0 ml dozada mushaklar orasiga yuborib giperimmunladik.

Ohirgi inyeksiya tugagandan soʻng 14 kundan keyin tajriba guruhidagi tovuqlardan yigʻib olingan tuxumlar +3 +5⁰C haroratda saqlandi. Keyin olingan

tuxumlarning sarig'ini oqidan ajratib, natriy xloridning steril izotonik eritmasi bilan 3 karra suyultirdik, konservatsiya qildik, 100, 200 va 400 ml steril flakonlarga qadoqlandi.

Immunlangan tovuqlarning tuxumi sarig'ida virusga qarshi antitelolar darajasini aniqlash uchun bilvosita gemagglyutinatsiya reaksiyasi (BGAR) qo'llanildi. Tekshirish uchun tovuqlardan emlashdan oldin, emlashdan 14, 28 va 42 kundan keyin olingan tuxumlari ishlatildi. Immunoglobulinlarni tuxum sarig'i lipidlaridan ajratish uchun sarig'i 1:1 nisbatda steril izotonik natriy xlorid eritmasi bilan suyultirildi va unga tozalangan aviatsiya benzini qo'shildi, ehtiyotkorlik bilan qayta suspenziya qilindi va 3-5 kun davomida $+2+5^{\circ}\text{C}$ haroratga qo'yildi. Shundan keyin, o'rnashgan immunoglobulin ajratib olindi va immunologik reaksiyalarni qo'yish uchun ishlatildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Virusli diareya kasalligining epizootologiyasini o'rganish bo'yicha Samarqand viloyti xo'jaliklarida qoramollarda tadqiqotlar olib bordik. Xo'jaliklarda epizootologik va klinik tekshirishlar natijasida quyidagilar aniqlandi. Kasallik manbai bo'lib asosan kasal va kasaldan sog'aygan virus tashuvchilar xizmat qiladi. Kasal hayvonlar virusni tashqi muhitga so'lak, ko'z yoshlar, siydik va najas orqali chiqaradi. Kasallik asosan kuz, qish va bahor fasllarida qayd etiladi. Kasallikka 6-oylikdan 2- yoshgacha bo'lgan qoramollar sezgir hisoblanadi. Virusli diareyada qoramollarning kasallanish darajasi fermalarda 2-100%, o'lim 2-90% tashkil etadi. Kasallikning yashirin davri 2-14 kun orasida o'zgarib turadi. Kasallikning yashirin, o'tkir, yarim o'tkir va surunkali shakllari mavjud. Katta yoshdagi hayvonlarda kasallikning klinik belgilari kuzatilmaydi.

Tovuqlarning transovorial immunoglobulinlariga asoslangan "Enteroaviglob – 1" veterinariya preparati tarkibida vaksinalar tarkibiga kiruvchi har bir virusli va bakterial infeksiya qo'zg'atuvchilariga - buzoqlarning infeksiyon rinotraxeit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsital, rota- va koronavirusli infeksiya, kolibakterioz va proteoziga qarshi maxsus antitelolar mavjud.

Enteroaviglob – 1 veterinariya preparati tashqi ko'rinishi bo'yicha shaffof bo'lmagan suspenziya, begona aralashmalarsiz, mog'orsiz har xil intensivlikdagi sariq rangli gomogen emulsiya. Nominal hajmda 50,0; 100,0; 200,0 yoki 400,0 sm³ hajmli steril shisha flakonlarda rezina tiqinlar bilan yopilgan va metal qopqoqlarga o'ralgan. $+4^{\circ}\text{C}$ dan $+8^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan haroratda quruq va qorong'i joyda saqlanadi va tashiladi.

"Enteroaviglob – 1" veterinariya preparatini saqlash muddati saqlash va tashish shartlariga rioya qilingan holda ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy.

Muzlatilgan, yorliqsiz, qopqog'i buzilgan, yoriqlari bo'lgan, shuningdek ochilgandan keyin 8 soat ichida foydalanilmagan preparat yaroqsiz hisoblanadi va qaynatish yo'li bilan zararsizlantiriladi.

"Enteroaviglob – 1" veterinariya preparati zararsiz va areaktogen, davolovchi va profilaktik xususiyatlarga ega. "Enteroaviglob – 1" veterinariya preparati profilaktik maqsadda buzoqlarning virusli va bakterial etiologiyali enteritida og'iz sutini ilk bor berishdan avval 10-12,5 sm³ dozada ichiriladi va keyin kuniga 1 marta 3-5 kun davomida og'iz orqali beriladi.

Preparatni qo'llagandan keyin hayvonlarda passiv immunitet 7 kun davom etadi. U stimullavchi ta'sirga ega, gipogammaglobulinemiya buzoqlarda immunoglobulinlar miqdorini va organizmning tabiiy rezistentligini oshiradi.

“Enteroaviglob – 1” veterinariya preparati viruslarga, bakteriyalarga qarshi va immunostimulyatsiyalovchi vositalar bilan birga qo'llash mumkin. Preparatni qo'llashdan keyin hech qanday salbiy oqibatlar kuzatilmaydi. Preparatni qo'llashdan keyin hayvonni go'sht uchun so'yish cheklovlarsiz ruxsat etiladi.

Xulosa: Tovuqlarning transovorial immunoglobulinlariga asoslangan “Enteroaviglob – 1” veterinariya preparatini tayyorlash uchun ishlab chiqilgan texnologiya buzoqlarning virusli diareya, rota- va koronavirusli infeksiyasi, kolibakterioz va proteoziga qarshi assosirlangan faolsizlantirilgan “Enterovak-5” vaksinasi hamda yirik shoxli hayvonlarning infeksiyon rinotraxeit, virusli diareya, paragripp-3, respirator-sinsitial infeksiyasiga qarshi assosirlangan tirik “Tetravir-4” vaksinasi bilan giperimmunlangan tovuqlardan olingan tuxun sarig'idan yuqori darajada antitelolar olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Борисовец Д.С., Зуйкевич Т.А., Згировская А.А., Красочко П.А., Осипенко А.Е. Получение трансовариальных иммуноглобулинов при создании новых ветеринарных биопрепаратов // Эпизоотология Иммунобиология Фармакология Санитария. 2021;(2):31-39.

2. Шапулатова, З. Ж., Эргашев, Н. Н., & Рузикулова, У. Х. Ассоциативные инфекции телят, вызванные рота-, коронавирусами и вирусом диареи в хозяйствах республики Узбекистан. *UXeXc [Sc [re [TT [üe [US jacUSj [^] Tq^XeX*, 78.

3. Шапулатова З. Ж., Юнусов Х. Б., Красочко П. А. Разработка средств и способов диагностики, специфической профилактики заболеваний органов дыхания и пищеварения вирусно-бактериальной этиологии в хозяйствах Республики Узбекистан // *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*. – 2022. – с. 470-475.

4. Egg yolk antibodies (IgY) and their applications in human and veterinary health: A review. / E.P.V. Pereira[et al.] // *International Immunopharmacology*. 2019. – № 79. – P.293-303.

5. K.E. Magor, D.A. Higgins, // *Immunol. Today*. – 1995. № 16. – P. 392–398.

6. Egg yolk antibodies (IgY) and their applications in human and veterinary health: A review. / E.P.V. Pereira[et al.] // *International Immunopharmacology*. 2019. – № 79. – P.293-303.

7. Shapulatova Z.J., Ruzikulova U.X. – Virusli diareya kasalligiga qarshi kurashish usulini takomillashtirish. *Veterinariya meditsinasi*. 06.10.2023. 132-133.

8. Shapulatova Z. J., Ruzikulova U.X “Virusli diareya kasalligining klinik belgilari va laboratoriya diagnostikasi” *Veterinariya meditsinasi Maxsus son 5*, 2023 yil. 303-304 bet.